

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1251 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0.7 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **976 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-iyul oyida viloyatda 1316 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 452 taga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 340 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar soni 1007 ta (10,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10476 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (29,4 %), Karmana (17,3%), Qiziltepa (11,1 %) va Xatirchi (10,2 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Navoiy viloyati	10731	100,0	10476	100,0
Navoiy shahar	3204	29,9	3082	29,5
Zarafshon shahar	665	6,2	646	6,2
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	331	3,1	322	3,1
Qiziltepa	1197	11,1	1167	11,1
Navbahor	932	8,7	916	8,7
Karmana	1836	17,1	1814	17,3
Nurota	888	8,3	874	8,3
Tomdi	190	1,8	183	1,8
Uchquduq	403	3,8	400	3,8
Xatirchi	1085	10,0	1072	10,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,8 % savdoda, 15,9 % sanoatda, 9,1 % qurilishda, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyul holatiga 1316 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 52,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (291 ta), Karmana (192 ta), Nurota (145 ta) va Xatirchi tumanlarida (144 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (71 ta), Konimex (53 ta) hamda Tomdi (27 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (192 ta), sanoatda (231 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (219 ta) va qurilishda (149 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (23 ta), axborot va aloqada (33 ta) hamda tashish va saqlashda (42 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyul holatiga	2018 yil yanvar-iyul holatiga
Jami:	864	1316
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	209	219
Sanoat	172	231
Qurilish	70	149
Savdo	148	192
Tashish va saqlash	52	42
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	106	123
Axborot va aloqa	11	33
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16	23
Boshqa turlari	80	304

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 avgust holatiga 8482 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3336 ta, oilaviy korxonalar – 622 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 4280 ta, aksiyadorlik jamiyatlar – 20 tani va boshqalar 224 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 79 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga yoki 36,2 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalaridan 55 tasi qo'shma korxonalar, 24 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahar 28 ta (35,4 %), Karmana tumani 21 ta (26,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Tomdi tumani 1 ta (1,3 %), Uchquduq tumani 2 ta (2,5 %), Xatirchiva Konimex tumanlari 3 ta (3,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 50 ta (63,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 11 ta (13,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa savdoda 5 ta (6,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 8 ta (10,1 %) tashish va saqlashda 3 ta (3,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,3 %) va qurilishda 1 ta (1,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 19 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan yoki 19,0 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-3 ta, Eron Islom Respublikasi-2 ta va Janubiy Koreya Respublikasi– 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda



Rossiya
Federatsiyasi

Eron Islom
Respublikasi

Afg'oniston

Xitoy Xalq
Respublikasi


Koreya
Respublikasi

Va boshqa
davlatlar
rezidentlari



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 9 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyatida 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 8406 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 14,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2595 tasi (30,9 %) Navoiy shahriga, 1562 tasi (18,6 %) Karmana, 938 tasi (11,2 %) Qiziltepa hamda 755 tasi (9,0 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8406 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2065 tasi (24,6 %) – savdoda, 1640 tasi (19,5 %) - sanoatda, 951 tasi (11,3 %) - qurilishda, 1126 tasi (13,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 786 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 402 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 140 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 158 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1138 tasi (13,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 1122 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 33,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy-shahrida (254 ta), Karmana (150 ta), Nurota (143 ta) tumanlarida va Zarafshon-shahrida (136 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (54 ta), Konimex (49 ta) hamda Tomdi (23 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (192 ta), sanoatda (231 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (219 ta) va qurilishda (149 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (23 ta), axborot va aloqada (33 ta) hamda tashish va saqlashda (42 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 636 tani tashkil etib, ulardan 622 tasi yoki 97,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 37,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 20,6 % yoki 128 tasi sanoat, 23,2 % yoki 144 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,8 % yoki 117 tasi savdo, 24,8 % yoki 154 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 7 tasi qurilish, 1,3 % yoki 8 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 13 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,0 % yoki 44 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul:
S. Doniyev
(0436)2236247